



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/aprel

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 2023
aprel

<p>Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p>Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p>Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p>Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich</p> <p>Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p>Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p>Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>Telefon: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 28.04.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar</p> <p>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatining roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
	Saidova R. Tariqat sifatida malomatiylikning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	7
	Эргашева Х. Ю. Мактабгача таълимда иккинчи тилни ўргатишнинг концепция ва тамойиллари.	19
	Narzilloeva M. Sh. Jondor toponimlarining leksik xususiyatlari	27
	13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
	Yuldasheva M. M. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish texnologiyasi	38
	Mametjumayeva G. R. Boshlang'ich sinf darsliklarida keltirilgan frazeologik birliklarning o'quvchilar nutqidagi ahamiyati.	43
	Sobirov U. G'. XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Buxoroda maorif islohotlari va an'anaviy ta'limga kiritilgan o'zgarishlar	56
	Saparova Sh. R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari	68
	Holiqova M. K. 4-sinf o'qish kitobi adabiy parchalari vositasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni estetik tarbiyalash	77
Mamurov B. B Bolalarni tarbiyasi va rivojlanishida o'yinlardan foydalanish muammosi	88	
Атамуродова Р Қ, Абдулла Ориповнинг «Соҳибқирон» достони - таълим жараёнида миллий ғурур ва ифтихор туйғусини шакллантирувчи восита сифатида	98	
Камолова Ш. У. Талабалар илмий дунёқарашини юксалтиришда ахборот технологиялардан фойдаланиш имкониятлари	104	
Давронов Ш. И. Бошланғич синф ўқувчиларини соғломлаштиришни ташкиллаштириш методикаси	114	
Shokirova M. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim sharoitida oila va maktab o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni modellashtirish	122	
Ergasheva T. Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	127	
Норова К. Ю. Олий таълим муассасаларидатаълим хизматлари сифатини бошқаришда замонавий ёндашувлар ва педагогик технологиялардан фойдаланиш тизими	132	

Tilavova M. M., Tursunova N. 2-sinf texnologiya darslarini milliy o'quv dasturi asosida tashkil etish metodikasi	142
Cho'liyeva M. S. Boshlang'ich ta'lim jahon ta'lim makonida boshlovchi maydon hisoblanadi	148
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Nabiyev M. B. Tush ko'rish jarayonining ijtimoiy-psixologik, fiziologik va diniy yondashuv asosida tahlili	158
Maxmudova D. I. Oiladagi farzandlarning tug'ilish ketma-ketligining o'ziga xos xususiyatlari	171
Akromov A. Sh. Inson salomatligini qo'llab-quvvatlashning psixologik mexanizmlari va determinantlari	183
Axmedova M. L. Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan psixologik faoliyat mazmuni	195
Qarshiboeva G. A. Suitsidal xulq-atvor tizimidaagi шахс ривожланиш омиллари	203
Ochilov Ch. Q. Anomal bolalarni sog'lom tengdoshlari orasida inklyuziv ta'lim berishning psixologik jihatlari	214
Majidov Jasur Baxtiyarovich Professional futbol jamoalarida murabbiy va sporchi munosabatlarining o'ziga xosligi	222
08.00.00 - IQTISODIYOT	
Rahmatov Sh. A. Jahonda zamonaviy oliy ta'lim muassasalar shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy shart-sharoitlar va omillar	235
Hamidov R. E. Yangi O'zbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyati.	240

2-SINF TEXNOLOGIYA DARSLARINI MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI

*Tilavova Matlab Muhammedovna,
pedagogika fanlari nomzodi, boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi dotsenti. Buxoro davlat universiteti*

*Tursunova Nozima,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti*

Annotatsiya: Ta'lim jarayoniga milliy o'quv dasturining joriy etilishi nazariya va amaliyotning uyg'un tarzda olib borilishiga yana bir asos bo'ldi. Mazkur maqolada texnologiya darslarini milliy o'quv dasturi asosida o'qitish metodikasi aks ettirilgan. Pedagoglar uchun dars o'tish jarayonida kerakli bo'ladigan ayrim tavsiyalar ishlab chiqilgan, hamda texnologiya ta'limida amaliy ishlar qay darajada muhimligi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: milliy o'quv dasturi, dars, o'quvchilar, AKT vositalari, videodars, tarqatma vazifalar, internet resurslar.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ТЕХНОЛОГИИ 2 КЛАССА НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ

*Тилавова Матлаб Мухаммедовна,
кандидат педагогических наук, доцент кафедры методики
начального образования. Бухарский государственный
университет*

*Турсунова Нозима,
магистрант Бухарского государственного педагогического
института*

Аннотация: Внедрение в образовательный процесс национальной учебной программы стало еще одной основой для гармоничного проведения теории и практики. В данной статье отражена методика преподавания уроков технологии на основе отечественной учебной программы. Разработаны некоторые рекомендации, которые будут необходимы педагогам в ходе урока, а также обсуждена важность практической работы в технологическом обучении.

Ключевые слова: национальная учебная программа, урок, ученики, средства ИКТ, видеурок, распределенные задания, интернет-ресурсы.

METHODOLOGY OF ORGANIZING 2ND GRADE TECHNOLOGY LESSONS BASED ON THE NATIONAL CURRICULUM

*Tilavova Matlab Muxammedovna,
candidate of pedagogical sciences, associate Professor of
the Department of methods of primary education. Bukhara State
University*

*Tursunova Nozima,
master student of the Bukhara State Pedagogical Institute*

Annotation: The introduction of the national curriculum into the educational process became another basis for the harmonious conduct of theory and practice. This article reflects the methodology of teaching technology classes based on the national curriculum. Some recommendations that will be necessary for pedagogues during the course of the lesson have been developed, and the importance of practical work in technology education has been discussed.

Key words: national curriculum, lesson, pupils, ICT tools, video lesson, distributed tasks, Internet resources.

Kirish. Hozirgi vaqtda texnologiya fanining amaldagi joriy holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ladi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ta'lim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta'kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha harajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi

Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari asosida fanning maqsad va vazifalariga mos pedagogik texnologiya va interfaol metodlarni qo'llay olish, ko'rsatmali vositalardan o'rinli, unumli foydalana bilish, nazariy bilimni amaliyot bilan bog'lagan holda darsda o'quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi metodlar yordamida darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davr talabidir. Shu sababli bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinmay ishlashi, ilg'or ish tajribalarini kuzatib borishi hamda ularga ijodiy yondashgan holda

o‘z dars jarayoniga tatbiq etishi lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim tizimini tubdan yangilash, uning moddiy - texnik negizini, o‘qish va o‘qitish usullarini milliy va xalqchillashtirish hamda standartlashtirish zarurligi, buning uchun qator muhim vazifalarni amalga oshirish yo‘llarini aniq belgilab berdi. Davlatimiz tomonidan bu masalaga jiddiy e‘tibor qaratilishi bejiz emas, albatta. Uzluksiz ta‘lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta‘minlanmaganligi ta‘lim sifati va samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ta‘lim turlararo mavzularining takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko‘p soatning ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma‘lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar aniqlandi.

Xususan, texnologiya fanidan mavjud o‘quv dasturlari qiyosiy jadvallar asosida tahlil qilinanda takrorlangan mavzular 43 ta, uzviyligi ta‘minlanmagan mavzular 83 ta, olib tashlanadigan mavzular soni 65 ta, yangi kiritishga yoki takomillashtirishga taklif etilgan mavzular soni 93 ta, xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha kiritiladigan mavzular soni 95 ta eknligi aniqlandi va dasturlarga o‘zgartirishlar kiritildi.

Hozirgi kunda pedagoglar oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad va vazifalardan biri ham milliy o‘quv dasturi asosida darslarni samarali tashkil qilish va ularni o‘tkazishdan iboratdir. Ayniqsa, Texnologiya darslarini to‘g‘ri tashkil etish muhim sanaladi. Chunki Texnologiya fani nafaqat qo‘l motorikasini rivojlantiribgina qolmay, balki bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirib, ularni boshqa fanlarni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda STEAM asosida tashkil qilinayotgan darslarning asosiy maqsadi ham qo‘l va miyaning birgalikda harakatlanishidadir. Inson sezgi organlarini qanchalik ko‘p ishlatsa, uning ma‘lumotlarni qabul qilish jarayoni yaxshilanadi va bu olingan ma‘lumotlar xotirada uzoq vaqt mobaynida saqlanishiga yordam beradi. STEAM o‘ziga tabiiy fanlar, texnologiya, injenerlik, san‘at, ijodkorlik, matematika fanlarining amaliy jihatlarini umumlashtirib integratsiyalashni nazarda tutadi. STEAM-kundalik hayotning ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta‘limning integrativ yondashuvini taqazo etadi. Shu sababdan ham Texnologiya darslariga alohida e‘tibor qaratish juda muhim sanaladi.

Yangi milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan boshlang‘ich sinf Texnologiya darsliklari ham quyidagi 7 bo‘lim asosida o‘qitiladi:

1. Texnologiya va texnologik vositalar
2. Texnik konstruksiyalash va modellashtirish
3. Qog‘oz va karton bilan ishlash
4. Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash
5. Robototexnika asoslari
6. Zamonaviy kasblar
7. Milliy hunarmandchilik

2-sinf Texnologiya darsliklari esa quyidagi bo‘limlar asosida

o'qitiladi:

1. Texnologiya va texnologik vositalar
2. Texnik konstruksiyalash va modellashtirish
3. Qog'oz va karton bilan ishlash
4. Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qog'oz bilan ishlash uchun darslikda katta soat ajratilgan bo'lib, bu o'quvchilar sevib bajaradigan mashg'ulotlardan biridir. Qog'oz bilan bajariladigan qo'l mehnati ishlari kichik yoshdagi bolalarni ilhomlantiradi. Ayniqsa, rangli qog'ozlar bilan ishlash jarayoni qiziqarli jarayonlardan biri hisoblanib, bunda barmoqlar harakati orqali bolalarda qo'l motorikasi juda yaxshi rivojlanadi.

Metodlar. Xususan, 2-sinf darsligida mavjud bo'lgan "Kvilling - bu cheksiz fantaziya. Kvilling usulida gullar, hayvonlar, parrandalar shaklini yasash" mavzusi ham mana shunday qiziqarli va dolzarb mavzulardan biri hisoblanib, o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb qiladi.



1-rasm. (2-sinf Texnologiya darsligidan)

Ko'rib turganimizdek darslikning bu mavzu uchun darslikda alohida 2 soat ajratilgan. Barcha darslarni boshlashdan oldin, avvalo, pedagog o'z oldiga maqsad qo'yadi. Xuddi shunday ushbu darsda ham birinchi o'rinda maqsadni aniqlashtirib olish lozim bo'ladi. O'z navbatida darsni 3 maqsad asosida o'tamiz.

Maqsad a) ta'limiy: kvilling to'g'risida tushuncha berish va uni

amalda bajarishni o'quvchilarga o'rgatishdir;

b)tarbiyaviy: o'quvchilar badiiy-estetik didini o'stirish, tejamkorlik, mehnatsevarlik va ozodalikni tarbiyalash;

d)rivojlantiruvchi: o'quvchilarda ijodiy tafakkur, tasavvur va fantaziyani, qog'oz va qaychi bilan ishlash malakalarini rivojlantirish

Darsning taxminiy texnologik xaritasini tuzib olamiz. Bundan so'ng esa darsning asosiy qismiga o'tiladi. Darsning asosiy qismida kvilling haqida nazariy ma'lumotlar beriladi. U nima ekanligi va uni qanday yasash kerakligi to'g'risidagi bilimlar mana shu asosiy qismda beriladi va o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladi.

2-rasm. Darsning texnologik xaritasi

Kvilling – uzunchoq va ensiz qog'ozni eshish (masalan, bigiz, tishkavlagich atrofida) orqali nafis tarzda ishlangan shakl. Bunda qog'oz spiralsimon bo'lib qoladi va uni o'zgartirish bilan boshqa har xil shakllar hosil qilish mumkin. Qog'ozning ikkala tomoni ham rangli bo'lishi lozim. Kvilling hosil qilish uchun qog'ozning eni 3–7 mm bo'lishi talab etiladi. Qog'ozni ikkala barmog'ingiz bilan ushlang. Shunday holatda uni ikkinchi barmog'ingiz tirnog'i bilan silliqlab, qog'oz uchini qayiring. Uchi qayrilgan qog'oz yog'ochdan tayyorlangan maxsus tekis ingichka tayoqchaga tez o'raladi. Qog'ozni zich qilib o'rashni unutmang. Agar qog'ozning diametri 3–4 mm bo'lsa, bigizni qo'yib, barmoqlaringiz bilan o'rasangiz ham bo'ladi.

Spiral yoyilib ketmasligi uchun PVA yelimi bilan oxirigi uchini qog'ozga yopishtirib qo'ying. Spiralsimon shaklni barmoqlaringiz bilan ezib, turli shakllar hosil qilishingiz mumkin. Ushbu shakllar ko'magida har xil narsa-buyumlar yasab ko'ring.

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

I. Tashkiliy qism (8 daqiqa):	salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash, navbatchi axborotini eshish, uyga vazifani tekshirish.	
Dars shakli:	yangi bilim beruvchi.	
O'qitishning usul va texnologiyalari:	tushuntirish, suhbat, ko'rsatmalilik, amaliy.	
AKT va interfaol vositalar:	kompyuter elektron doska smart doska	proyektor televizor kolonkalar
Ko'rgazmali qurollar va o'qitish vositalari:	darslik taqdimot video rasmlar plakatlar	tarqatma kartochka-vazifalar; amaliy vazifalar; test varaqalari; so'rovnoma.
II. Motivatsiya (5 daqiqa).	Kvilling deganda nimani tushunasiz?	
Yangi tushunchalar:	kvilling, texnologik loyihalash.	

3-rasm. Kvilling orqali gullar yasash

Mulohaza. So'ng esa o'quvchilar bilan birgalikda ishni yasash bosqichiga o'tiladi. Bu jarayonda o'qituvchi sinfdagi guruhlarga bo'lib

darsni mazmunli tashkil etishi mumkin. Bundan tashqari o'qituvchi ushbu darsga taaluqli bo'lgan tarqatma vazifalar, taqdimot, videodars va internet resurslardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu kabi AKT vositalarini qo'llash orqali bolalarda kvilling bilan ishlash osonlashadi.

Ishni bajarish jarayonida ranglar uyg'unligiga e'tibor berish ham muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Unda ranglarni to'g'ri tanlash kerakligi haqida bolalarga kerakli bo'lgan tushunchani berish lozim. Bunda kvilling uchun tanlangan fonga ham ahamiyat berish kerak bo'ladi.

Darsni mustahkamlash jarayonida esa ishni bajarib bo'lgan o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazish kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi taxminan quyidagi savollarni o'quvchilarga berishi mumkin bo'ladi:

- Yasagan ishinigizni ta'riflang
- Ishingizni tugatib bo'lgandan keyin nima qilasiz
- Bugun nimalarni o'rgandingiz
- Kvilling nima
- Kvilling yasash uchun bizga nimalar kerak bo'ladi
- Bugungi darsimiz mavzusi sizga yoqdimi

Shundan so'ng esa o'quvchilarni baholash uchun vaqt ajraladi va nihoyat eng so'nggi bosqich uyga vazifa berish orqali dars yakunlanadi. Uyga vazifa sifatida sinfda yakunlanmay qolgan ishlarni tugatib kelishni yoki biror bir hayvon shaklini kvilling orqali uyda yasab kelishni berish mukmin. Bu orqali bola uyga borib yangi mavzuni eslaydi va o'zi kvilling orqali mustaqil ishlashni o'rganib oladi.



4-5-rasmlar. Kvilling usulida yasalgan kapalak va gul namunasi.



4-rasm. Kvilling orqali yasalgan ukki.

Xulosa va tavsiyalar. O'quvchilarga ilhom berish va ularning fikrlash qobiliyatini yaxshilash maqsadida ularga bir necha kvilling ishlaridan namunalari ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida bayon qilingan taxminiy dars ishlanmasini pedagog, o'qituvchilar Texnologiya darslarida bemalol qo'llay oladi va bu ularning dars samaradorligini oshirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xamrakul Sanakulov, Dilfuza Abdiyeva 2-sinf Texnologiya darsligi, Toshkent-2021-yil

2. .Matlab Tilavova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Muharrir nashriyoti" 2019-yil

3. Tilavova M.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari. T., 2009

4. Tilavova M.M. "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" T., "Standart Poligraf" 2019 yil

5. M.Tilavova "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Buxoro."Sadridin Salim Buxoriy "Durdona,2021-312b.

6. Tilavova M.M, Alimova M.A "Texnologiya darslarida xorij tajribasi" Globe edit , 2022 yil

7. Mukhamadovna T. M., Sharipovna H. A., Supkhonovna H. N. The system of

development of professional competence in future primary school teachers //SYSTEM. – 2020. –&. 7. –^ 13. – . 2020.

8. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a

significant factor of forming world outlook of students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. –&. 11